O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AZIMOVA GULJAMOL BEGIMQUL QIZI

INFORMAL TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING NUTQIY KO‘NIKMALARINI AUTENTIK MATERIALLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 811.111(07):371.126

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Azimova Guljamol Begimqul qizi

Informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish metodikasi …….....3

Azimova Guljamol Begimqul qizi

Методика развития речевых навыков будущих учителей английского языка в условиях информальной образовательной среды посредством аутентичных материалов ……..……...……24

Azimova Guljamol Begimqul qizi

Methodology for Developing the Speaking Skills of Prospective English Language Teachers in an Informal Learning Environment through Authentic Materials……..……45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……...50

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AZIMOVA GULJAMOL BEGIMQUL QIZI

INFORMAL TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING NUTQIY KO‘NIKMALARINI AUTENTIK MATERIALLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9088 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va “ZiyoNyet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jabbarov Ulug‘bek Abduraxmanovich** Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Isakulova Nilufar Janikulovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Rasulova Gulbaxor Kerimbayevna pedagogika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 254-92-02; faks: (+99871) 215-54-20.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “____” _____kuni tarqatildi.
2026-yil “____”_____da____-raqamli reyestr bayonnomasi.

Sh.A.Atadjanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

S.X.Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Ikromxonova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini auditoriyadan tashqari tabiiy muloqot tajribasi orqali rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. CEFR[1] qo‘shimcha jildida til o‘rganuvchining retsepsiya, produksiya, interaksiya va mediatsiya faoliyatini real kommunikativ vazifalar doirasida rivojlantirish zarurligi belgilangan. Talabalarning auditoriyadan tashqari til faoliyatida podkastlar va videomuloqotlar keng qo‘llanmoqda, autentik manbalarni kasbiy maqsadga muvofiq saralash hamda ular asosida nutqiy mahsulot yaratish jarayoni esa yetarlicha metodik boshqarilmayotgani saqlanib qolmoqda. Shu sababli informal ta’limda orttirilgan til tajribasini maqsadli nutqiy topshiriqlarga aylantirish hamda uni refleksiv baholash bilan bog‘lovchi metodikani takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda informal ta’lim muhitining ingliz tilini egallashga ta’siri raqamli platformadagi mustaqil faoliyatni autentik muloqot va nutqiy faollik bilan bog‘lash nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda. Gonkong Ta’lim universitetida informal raqamli ta’limning gapirishga tayyorlikka ta’siri, Gyoteborg universitetida auditoriyadan tashqari ingliz tili tajribasining produktiv lug‘atga ta’siri, Oklend universiteti va Britaniya Kolumbiyasi universitetida esa autentik materiallarni real kommunikativ vazifalarga tatbiq etish masalalari o‘rganilmoqda. Mazkur izlanishlarda ta’lim oluvchining mustaqilligi va raqamli muloqotdagi ishtiroki ustuvor yo‘nalish sifatida qaralsada, bo‘lajak o‘qituvchining informal tajribasini kasbiy nutqiy faoliyatga ko‘chirish mexanizmi yaxlit ishlab chiqilmagan. Bu holat autentik materiallarni tanlashdan nutqiy mahsulot yaratishgacha bo‘lgan jarayonni pedagogik qo‘llab-quvvatlash va diagnostik baholash bilan uyg‘unlashtirish zaruratini belgilaydi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish hamda bo‘lajak pedagoglarning mustaqil ta’lim faoliyatini raqamli resurslar orqali qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish”[2] vazifasi belgilangan. Shunga qaramasdan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining informal muhitda autentik materiallar bilan ishlash faoliyati tizimsiz kechmoqda va uning natijalari kasbiy nutqiy tayyorgarlik mezonlari bo‘yicha baholanmayotgani yuzaga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, autentik materiallarni kasbiy ehtiyojga muvofiq saralash hamda informal til tajribasini auditoriyadagi nutqiy amaliyotga ko‘chirishni ta’minlovchi metodik tizimni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

[1] Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment — Companion Volume. Council of Europe, 2020.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ–5117-son «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 2-martdagi PF–5953-son “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi VMQ-34-sonli “Chet tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlar hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtiradi hamda oliy ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy – ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizning qator pedagog olimlari, jumladan, L.T. Axmedova, J. Jalolovlarning tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish masalalari o‘rganilgan. Ta’lim jarayonida integrativ yondashuvning pedagogik, metodik masalalari N.M. Axmedova, M. Gulyamova kabilar tomonidan tatqiq etilgan. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar U.A. Murodova, D.R. Alaudinova, D.R. Po‘latova, D.A. Saimnazarova, U.A. Masharipova, F.E. Sattorova, D. Usarova, F. Alimov, X.A. Ahmadjonov kabilar tomonidan olib borilgan. Ingliz tilini o‘qitishda autentik materiallardan foydalanishning psixologik, ijtimoiy-madaniy, lingvistik jihatlarini P.X. Omanov, G.A. Inamova kabilar tadqiq etishgan. Z. A. Mirzayeva, I.B. Utayeva, D.M. Sarimsakovalarning tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim olish faoliyatini tashkil etish hamda samaradorligini oshirish muammolari va ularning yechimlari o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.A. Leontiyev, I.A. Zimnyaya, L.S. Vigotskiy, B.V. Belyayev, N.I. Jinkin nutqni yaratish, idrok etish hamda chet tilni o‘zlashtirishning psixologik mexanizmlarini tadqiq etishgan. I.A. Bredixina, L.P. Solonsova, T.V. Medvedeva, L.A. Petrenko, T.V. Yermolova chet til o‘qitish, G.V. Rogova, Ye.I. Passov, G.I. Voronina kabilar kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha tadqiqot olib borishgan.

Autentik materiallar vositasida til birliklarini real nutqiy vaziyatlarda qo‘llanishiga oid masalalar M.V. Lyaxovitskiy, T.G. Dobrosklonskaya, N.D. Shvedova hamda O.S. Axmanova kabilarning tadqiqotlarida asoslangan.

Xorijiy olimlar tomonidan autentik materiallar vositasida real til muhitini yaratish masalalariga oid ilmiy izlanishlar F. Giraldo, A. Gilmore, F. Mishan, M. Breen, J.G. Gebhard, J. Herrington, D. Porter va J. Roberts, V. Guariento, H.G. Widdowson, K. Morrow, S. Kramsch, L. van Lier tomonidan olib borilgan. Tesi di Laurea, B. Rogoff va M. Callanan, Kumbs va Ahmad, M. Johnson va D. Majewska kabilar informal ta’lim muhitini maqsadli tashkil etish, boshqarish va ta’limiy natijaga yo‘naltirishga oid tadqiqotlar olib borishgan.

Biroq, mavjud tadqiqotlar tahlili bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar asosida rivojlantirishning metodik tizimi, uning didaktik mexanizmlari hamda oliy ta’lim sharoitida qo‘llash texnologiyalari yetarli darajada kompleks o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi. Mazkur holat ushbu tadqiqotning maqsadi va ilmiy yo‘nalishini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta’lim resurslarini yaratish hamda takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish” mavzusidagi ustuvor ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish jarayonini nazariy va metodik jihatdan asoslash hamda uni samarali tashkil etishga qaratilgan metodikani takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslash;

informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish modelini ishlab chiqish hamda uning tarkibiy komponentlarini asoslash;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarning didaktik va ta’limiy imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish;

informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida aniqlash va baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tilga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasasining 1- va 2-kurslarida ingliz tilini mutaxassislik sifatida o‘qitish jarayoni tanlangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlari O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, O‘zbekiston-

Finlandiya pedagogika instituti, Navoiy davlat universitetining Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo‘nalishida olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 346 nafari talaba ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta’lim muassasalari ingliz tili yo‘nalishi talabalarining nutqiy ko‘nikmalarini informal ta’lim muhitida autentik materiallar vositasida rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid bo‘lgan o‘quv reja, o‘quv dasturi, davlat ta’lim standarti kabi o‘quv-me’yoriy hujjatlarni, chet til o‘qitishga oid metodik, ilmiy-uslubiy manbalarni izchil o‘rganish, qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish; ta’lim jarayonini pedagogik kuzatish, so‘rovnoma o‘tkazish, tajriba-sinovni o‘tkazish va monitoring, olingan ma’lumotlarni matematik statistik qayta ishlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini informal ta’lim muhitida autentik materiallar vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari talabalarning individual o‘rganish uslubiga mos autentik materiallarni tanlashga ko‘ra auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatni maqsadli tashkil etish, refleksiv o‘zini o‘zi baholash hamda real kommunikativ ehtiyojlarni hisobga olishning funksional uyg‘unligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli rasmiy va informal ta’lim integratsiyasini maqsadli, konseptual, mazmuniy-texnologik hamda diagnostik-baholash bloklari uzviyligida tashkil etish, autentik materiallar, mustaqil ta’lim shakllari, kommunikativ metodlar va baholash vositalarini yagona metodik tizimda o‘zaro bog‘lash asosida takomillashtirilgan;

autentik materiallar vositasida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi Flipped Classroom va vazifaga asoslangan til o‘rganish metodlarini autentik material bilan ishlashdan oldingi, ishlash jarayonidagi va keyingi bosqichlarda auditoriya hamda mustaqil ta’lim faoliyatining uzviy integratsiyasini ta’minlash, kommunikativ mashq va topshiriqlar tizimini uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini baholash mexanizmi kognitiv, refleksiv, motivatsion va faoliyatli mezonlarning diagnostik ko‘rsatkichlarini CEFRga mos B1, B2 va C1 darajalari, o‘zaro baholash, refleksiv tahlil hamda fikr-mulohaza almashish jarayonlari bilan bog‘lash orqali tizimlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlanlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlanlantirish metodikasini takomillashtirishga mo‘ljallangan mashq va topshiriqlar majmui hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlanligini baholash mezonlari takomillashtirilgan;

60110900 – “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. “Practical grammar and phonetics” darsligi tayyorlangan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi respublikamiz va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, xorijiy ilmiy jurnallar va OAK ro‘yxatidagi jurnallarda chop etilgan maqolalar, respondentlar bilan olib borilgan savol-javoblar, xulosa, olingan natijalar, tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etilganligi, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlaniladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari takomillashtirilgani, autentik audio, video va matnli resurslarni real kommunikativ vaziyatlar bilan bog‘lashning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgani, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini o‘zaro integratsiyada rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangani hamda xorijiy til ta’limida informal o‘rganish va autentik materiallardan foydalanish metodikasi nazariyasini boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini informal ta’lim sharoitida rivojlantirishga mo‘ljallangan autentik materiallar, kommunikativ topshiriqlar, mustaqil ta’lim mashqlari va refleksiv baholash vositalari ishlab chiqilgani, ulardan auditoriya va auditoriyadan tashqari ingliz tili ta’limida talabalarning real nutqni tushunishi, vaziyatga mos fikr bildirishi, muloqotni davom ettirishi hamda mustaqil nutqiy faoliyatini rivojlantirishda, shuningdek o‘quv-metodik qo‘llanmalar va mustaqil ta’lim materiallarini takomillashtirishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish metodikasiga doir erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini informal ta’lim muhitida autentik materiallar vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini talabalarning individual o‘rganish uslublariga mos material tanlash, auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatni maqsadli tashkil etish, refleksiv o‘zini baholash va real kommunikativ ehtiyojlarni hisobga olishning o‘zaro uyg‘unligi asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirildi (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2026-yil 20-apreldagi 11-05-2259/04-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining individual o‘rganish xususiyatlariga mos autentik materiallarni tanlash, mustaqil ta’lim faoliyatini maqsadli tashkil etish hamda refleksiv o‘zini baholash asosida nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish modelini rasmiy va informal ta’lim integratsiyasini maqsadli, konseptual, mazmuniy-texnologik hamda diagnostik-baholash bloklari uzviyligida tashkil etish, autentik materiallar, mustaqil ta’lim shakllari, kommunikativ metodlar va baholash vositalarini yagona metodik tizimda o‘zaro bog‘lash asosida takomillashtirishga oid takliflar “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga kiritildi (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2026-yil 20-apreldagi 11-05-2259/04-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat uzviyligida rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit metodik modelni ta’lim jarayonida qo‘llash samaradorligi oshirilgan;

autentik materiallar vositasida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasini Flipped Classroom va vazifaga asoslangan til o‘rganish metodlarini autentik material bilan ishlashdan oldingi, ishlash jarayonidagi va keyingi bosqichlarda auditoriya hamda mustaqil ta’lim faoliyatining uzviy integratsiyasini ta’minlash, kommunikativ mashq va topshiriqlar tizimini uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqishga oid tavsiyalar “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirildi (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2026-yil 20-apreldagi 11-05-2259/04-son ma’lumotnomasi). Natijada autentik materiallar bilan bosqichma-bosqich ishlash, auditoriya va mustaqil ta’lim faoliyatini o‘zaro bog‘lash hamda kommunikativ topshiriqlar orqali talabalarning real nutqiy vaziyatlarda ingliz tilidan faol foydalanish imkoniyatlari rivojlangan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini baholash mexanizmini kognitiv, refleksiv, motivatsion va faoliyatli mezonlarning diagnostik ko‘rsatkichlarini CEFRga mos B1, B2 va C1 darajalari, o‘zaro baholash, refleksiv tahlil hamda fikr-mulohaza almashish jarayonlari bilan bog‘lash orqali tizimlashtirishga oid tavsiyalar “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirildi (O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2026-yil 20-apreldagi 11-05-2259/04-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalari rivojlanganlik darajasini kompleks baholash, natijalarni refleksiv tahlil qilish va keyingi o‘quv faoliyatini korreksiyalashning diagnostik imkoniyatlari kengaytirilgan**.**

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Talabalarda nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari lingvodidaktik va metodik nuqtai nazardan o‘rganildi.

Oliy ta’lim tizimida chet tilini o‘qitish talabalarning ingliz tilida erkin muloqot qilish, firk almashinuvi bilan bir qatorda madaniyatlararo muloqot qila olish qobiliyatlarini lisoniy va madaniy bilimlar asosida takomillashtirilishga xizmat qilishi zarur. Chet tilini egallash murakkab psixologik, kognitiv jarayon bo‘lib, bunda til o‘rganuvchining shaxsiy qobiliyatlari ham shakllanib boradi.

Mazkur tadqiqotda “nutqiy ko‘nikmalar” atamasi quyidagicha talqin qilinadi: insonning turli nutqiy vaziyatlarda fikr-mulohazalarini ravon ifoda qila olish qobiliyatlari, muloqot chog‘ida shaxsning o‘z fikrini to‘liq, ravon va maqsadga muvofiq yetkazib bera olish, jamiyatda ijtimoiylashuvni taminlovchi aloqa vositasidir.

Tadqiqot jarayonida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish masalasi bo‘yicha pedagog, metodist, psixolog va lingvist olimlar izlanish olib borishgan. Xususan, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar, interaktiv texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati to‘g‘risida D.R.Alaudinova, D.R.Po‘latova, D.A.Saimnazarova, N.M.Axmedova, M.Gulyamova, U.A.Masharipova, F.E.Sattorova, D.Usarova, F.Alimov, X.A.Ahmadjonov, U.A.Murodovalar tomonidan tadqiq qilingan.

Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ta’limiy muammolar so‘nggi vaqtlarda pedagogika fanida keng tadqiq etilmoqda. Ko‘plab ilmiy izlanuvchi, yetakchi olimlar A.A.Leontiyev, I.A.Zimnyaya, L.S.Vigotskiy, N.I.Jinkin, I.A.Bredixina, L.P.Solonsova, G.V.Rogova, Ye.I.Passov, B.V.Belyayev, T.V.Medvedeva, T.V.Yermolova, M.V.Lyaxovitskiy, G.I.Voronina, T.G.Dobrosklonskaya, L.A.Petrenko, N.D.Shvedova, O.S.Axmanova, F.Giraldo, A. Dinser, J.Harmer, D.Krashenlar nutqiy ko‘nikmalarni turlari, ularni psixologik jihatdan amalga oshish jarayoni, bosqichlari to‘g‘risida izlanish olib borishgan.

Xorijiy tillarni o‘rganishda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish masalasi talabalarning og‘zaki va yozma nutqini takomillashtirish orqali yuz beradi.

J.Jalolovning fikricha, nutqiy ko‘nikmalar og‘zaki va yozma shaklda amalga oshadi. Ayni shu jihatdan, nutqiy ko‘nikmalarni og‘zaki va yozma nutqqa ajratib o‘rganish o‘rinli bo‘ladi. F.Giraldo og‘zaki nutq mavjud bo‘lishi va doimiy harakatda bo‘lishi mumkin, lekin yozma nutq og‘zaki nutqsiz yoki fikrlashsiz mavjud bo‘la olmasligini aytgan. Nutqning og‘zaki va yozma shakli fikrlarni ifodalab, idrok qilishga xizmat qiluvchi bir-biriga bog‘lik tizim hisoblanadi. Og‘zaki nutqning leksik xilma-xilligi shaxslararo munosabatlar paytida yuzaga keladigan turli kontekstlarning natijasidir. Og‘zaki nutq - turli kontekstlarda sodir bo‘ladigan, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan belgilar yordamida amalga oshiriladigan fikr almashish jarayonidir. Shu bilan birga, og‘zaki nutqda so‘z boyligining xilma-xilligi, so‘zlashuv shakllari, frazeologik birliklarning qo‘llanilishi va boshqalar amalga oshiriladi. Og‘zaki nutq rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ikkiga bo‘linadi. Birinchisi vaziyatga oid omillar bo‘lib, bu talabaning o‘quv muhiti yoki sharoitini tavsiflaydi. Birinchi guruh o‘z navbatida ta’lim muassasasi, shaxs omili, chet el, mamlakat va texnologiya omillarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim muassasasi omili tarkibidagi o‘qituvchining bahosi faqatgina nutqiy xatolarni ko‘rsatib beruvchi nazorat vositasigina emas, balki talabalarni rag‘batlantiradi, gapirish ko‘nikmasini rivojlanishini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shaxs omili talabaning mustaqil ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, chet tilida nutq ravonligiga erishish, talaffuzni yaxshilash uchun til sohiblari tomonidan kuylangan qo‘shiqlar, nutqlarni ko‘zgu texnikasi yordamida taqlid qilish yo‘li bilan mashq qilish samarali usullardan hisoblanadi.


Og‘zaki nutqni rivojlantirishning ikkinchi guruhi hissiy omillarni, ularning ichki tasniflanishini o‘z ichiga oladi: Motivatsiya omili (ichki turtki)-til o‘rganuvchi faoliyatni o‘z qiziqishi va o‘rganish ishtiyoqi sababli bajaradi; tashqi turtki-tashqi bosim yoki rag‘bat sababli faoliyatni amalga oshirish. Xavotir omili: xavotirlik omili-so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmaslik, begona shaxslar bilan muloqot qilishdagi xavotir; xotirjamlik omili-tanish insonlar bilan muloqot qilishda shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi

“Yozuv” va “yozma nutq” atamalarini sinonim tarzida qo‘llanilib, yozma nutq og‘zaki nutqning yozuvdagi ifodasi, tafakkur bilan og‘zaki nutq orqali bog‘lanadi. B.V.Belyayev “yozuv” va “yozma nutq” atamalarini sinonim tarzida qo‘llashni taklif etgan. Yozma nutq og‘zaki nutq orqali o‘rgatilishi zarur bo‘lgan nutqning ijodiy mahsulidir. Yozuv ma’lum tilning imlo tizimini egallash bo‘lsa, yozma nutq esa, o‘z fikr-mulohazalarini yozuv asosida ifodalash hisoblanadi.

Yozma nutqni rivojlanishi uchun zarur omillar sifatida quyidagilarni e’tirof etgan “yozuv va yozma nutqning lingvodidaktik taxlili ingliz tilidagi xarflarning grafik belgilarini, orfografik qoidalarni bilish, harflarni to‘g‘ri, chiroyli yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, yozma fikrni ifodalash, mantiqiy bog‘liqlik, yozma axborot yo‘naltirilgan shaxs, axborot mavzusi, yozayotgan shaxsning psixologik xolati, yozma nutqda ishlatilayotgan gap qurilishlarini mavzuga va nutq maqsadiga mos holda qo‘llay bilish kabi omillarga e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, yozma nutqning monologik xarakterga ega ekanligini ham ta’kidlash joiz.

Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi komponentlarni tadqiqotmizda psixologik, lingvistik, metodologik komponentlarga ajratamiz:




1-rasm. Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi komponentlari.

Lingvistik komponent til materiallari (fonetik, grammatik, leksik), turli nutqiy vaziyatga oid bo‘lgan ijtimoiy-madaniy elementlarni o‘z ichiga oladi. Til ta’limida nutqiy birliklar muloqot vaziyatiga til, madaniyat va jamiyat munosabatida ta’sir ko‘rsatadi, millat madaniyatining manbasi sifatida kommunikativ va kumulyativ vazifasini bajaradi psixologik komponent kommunikativ maqsadda o‘rganilayotgan chet tiliga oid bo‘lgan bilim va ko‘nikmalardan foydalanishni shakllantirishdan iborat bo‘lib, o‘rganish jarayonida talabalarda nutq mexanizmlari shakllanadi, nutqiy ko‘nikmalar tizimi o‘zlashtiriladi. Metodologik komponent esa o‘rganilayotgan chet tilini og‘zaki va yozma shakldagi nutqiy vaziyatlarda samarali foydalana olishdir.

Nutqiy ko‘nikmani rivojlantirishda o‘quv materiallar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, real hayotga bog‘liq bo‘lgan autentik materiallar bu borada samarali vosita sifatida xizmat qilib, talabalarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

Dissertatsiyamizda informal ta’lim muhitida “autentik materiallar” tilni real nutqiy vaziyatlarda haqiqiy qo‘llanishini aks ettiruvchi, til o‘rganuvchilarning ishtiyoqini oshirishga xizmat qiladigan, til egalari haqidagi madaniy, ijtimoiy, lisoniy bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan majmualar to‘plami deb ta’riflangan.

Autentik materiallar tadqiqotimizda quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganilgan:



2-rasm. Autentik material turlari

Autentik materiallarning asosiy qismi matnlardan iborat bo‘lib, tilda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aks ettirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. F. Mishanning firkicha, “autentik matn” atamasi ingliz tilidagi audio, vizual hamda grafik bosma, elektron matnlarga nisbatan ishlatiladi. Autentik matn keng tuchuncha bo‘lib, video, DVD, televideniya, kompyuter tomonidan yozib olingan ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Audiovizual autentik materiallar orasida tugallangan syujetga ega bo‘lgan filmlar va videolar muhim ahamiyatga ega. Audiovizual materiallar ma’lumotni tushunib qabul qilishda tasvir tovushni to‘ldiruvchi vosita hisoblanadi.

Realiyalar: bir xalqning hayoti (turmushi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyoti) ga xos va boshqa xalqlarga yot bo‘lgan obektlarni ataydigan so‘zlar va so‘z birikmalari. Realiyalarga qo‘g‘irchoqlar, devor soatlari, telefonlar, tangalar, valyuta misol bo‘la oladi. Ulardan ta’lim jarayonida rolli vaziyatlarda ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanish mumkin.

Raqamli va interakiv media o‘z ichiga vebsahifalar va bloglar ijtimoiy tarmoq postlari, YouTube va ijtimoiy tarmoq platformalar foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan turli-tuman, zamonaviy til tendensiyalarini taklif qiladi

Oliy ta’lim jurnalida sifatli ta’limni tashkil qilish xususida quyidagi fikrlar ta’kidlangan: “shaxslarni yaxlit rivojlantirishdan tashqari, ularni mustaqil fikrlash qobiliyati hamda global dunyoga moslashishuvi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlash lozim. Boisi sifatli ta’limning muhim jihatlaridan biri-bu tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish qobiliyatidir. Faqatgina yodlashga e’tibor qaratish o‘rniga, mustahkam ta’lim tizimi talabalarni savol berish, tahlil qilish va bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llashga undashi kerak. Bu odamlarga zamonaviy hayotning murakkab vaziyatlarida to‘g‘ri harakatlanish va jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

Ta’lim tushunchasi nafaqat rasmiy muhitda tashkil etiladi, balki O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunining 19-moddasida ta’lim tashkil etilishiga ko‘ra rasmiy, norasmiy va informal shaklda olib borilishi belgilab

qo‘yilgan. Unga ko‘ra: Rasmiy ta’lim davlat ta’lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o‘tgan nodavlat ta’lim tashkilotlari ishtirokidagi institusionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan ta’limdir. Norasmiy ta’lim ta’lim xizmatlari taqdim etilishini ta’minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institusionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan bo‘lib, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta’limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobilidir. Informal ta’lim aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institusionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta’limdan ko‘ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkin.

Informal ta’lim tushunchasining kelib chiqishi taniqli olimlar Jon Devey, SH. Noulz, Marsik va Vatkinslar nomi bilan bog‘liq. Ulardan J. Devey informal ta’lim so‘zini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatmagan bo‘lsada, 1938-yilda yozgan “Experience and Education” kitobida tajribaga asoslangan ta’lim tushunchasini qo‘llash orqali informal ta’lim atamasini paydo bo‘lishiga yo‘l ochib beradi. M. SH. Noulz o‘zining 1950-yilda yozgan “Informal Adult Education” kitobida ilk marta informal ta’lim atamasidan foydalanadi. Zamonaviy adabiyotlarda tez-tez uchraydigan informal ta’lim konsepsiyasi esa Marsik va Vatkinslar tomonidan ishlab chiqiladi. Keyinchalik, D. Livingstoun rasmiy ta’limni to‘ldiruvchi, o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan avtodidaktika nazariyasini ishlab chiqadi.

Tadqiqotimiz davomida informal ta’lim hamda informal ta’lim muhitini tashkil etuvchi talabaning mustaqil faoliyati tushunchalariga alohida to‘xtaldik. Shu o‘rinda, informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarni autentik materiallar vositasida rivojlantirish jarayonlari haqida o‘rganilgan bilimlar ham bayon qilinadi. Shuningdek, dissertatsiyamizda “informal ta’lim muhiti” atamasiga o‘quv maqsadining samaradorigi talabaning o‘z masuliyatiga bog‘liq bo‘lgan, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqillik va avtonomlik tamoyili asosida o‘rganishni taminlaydigan maydon deya ta’riflangan. Informal ta’lim talabaning mustaqil faoliyati, avtonomligini qo‘llab-quvvatlaydi, shu bilan birga, ta’limni hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilgan tamoyil asosida tashkil qilish imkonini yaratadi. Mustaqil ishlash talabalarda aqliy va tarbiyaviy faoliyatni shakllantiradigan, zarur bilim, ko‘nikmalar hamda erkin fikrlashni o‘rgatadigan ta’lim shaklidir. Talaba mustaqil faoliyat olib borar ekan, o‘quv jarayoniga nisbatan o‘zining individual pozitsiyasini aniqlaydi, o‘z qobiliyatlari asosida mustaqil ta’limni tashkil etadi.

Avtonomlik va til o‘rganish orasidagi yana bir bog‘liqlik til o‘rganish jarayonining o‘zi hisoblanadi. Til o‘rganish va undan muloqotda foydalana olish bir-biriga uzviy bog‘langan bo‘lib, ularni alohida tasavvur qilish qiyin. Tildan samarali muloqot vositasi sifatida foydalanish turli ijtimoiy vaziyatlarda mustaqillik va o‘ziga ishonshni talab etadi. Bundan kelib chiqadiki, til o‘rganuvchi mustaqil muloqot qila olishi va bu jarayondan saboq ola bilishi

orqali tilni samarali o‘rganish va foydalana olish qobiliyatini o‘zlashtirishi mumkin.

Til o‘rganish, tildan foydalanish va avtonomlik orasidagi murakkab munosabatga ta’sir qiluvchi so‘nggi omil autentik matn hisoblanadi. Autentik matnlar o‘rganilayotgan til va uning madaniyatini o‘zida mujassam etadi. Bu esa dars mashg‘ulotlari va haqiqiy muloqot orasidagi bog‘lanishni hosil qiladi, talabaning faolligi hamda shaxsiy ishtirokini talab qiladi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, autentik matnlar so‘z boyligini oshirish va talabaning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “Informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish metodikasi” deb nomlangan ikkinchi bobida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning modeli, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodlari va vositalari hamda uni amaliyotga joriy qilishning mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish modelini ishlab chiqish bosqichlariga amal qilindi hamda modelning yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqotimizda informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish modelini 3-rasmdagi ko‘rinishda ifodaladik.

MAQSADLI BLOK

Maqsad: Informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish

Vazifalar: informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish; modelini takomillashtirish; metodlarining ta’limiy imkoniyatlarini takomillashtirish; samaradorligini aniqlashtirish.

KONSEPTUAL BLOK

Yondashuvlar: kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ, ko‘nikmaga asoslangan

Pedagogik shart-sharoitlar: moddiy, metodik, ijtimoiy

Tamoyillar: kognitiv, kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan

MAZMUNLI-TEXNOLOGIK BLOK

Ta’lim shakllari: mustaqil ta’lim, individual, guruhda, juftlikda

Talim metodlari: teskari sinfxona (flipped classroom), vazifaga asoslangan til o‘rganish (task-

Mashqlar tizimi: aqliy hujum, simulyatsion-rolli o‘yinlar, bahs-munozara, loyihaga asoslangan topshiriq, muammoga

Ta’lim vositalari: autentik audiovizual materiallar, autentik vizual materiallar, autentik yozma materiallar, realiyalar, raqamli va interakiv media materiallari

DIAGNOSTIK-BAHOLASH BLOK

Mezonlar: Kognitiv, refleksiv, motivatsion, faoliyatli

Darajalar: Yuqori, o‘rta, quyi

NATIJA: NUTQIY KO‘NIKMALARI RIVOJLANGAN BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHISI

3-rasm. Informal ta’lim muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish modeli

Tadqiqot modelini tashkil etuvchi ta’lim texnologiyalari til o‘rganuvchilarga individual yondashishni, zamonaviy axborot-texnologiyalari orqali talabani tayyor bilimni qabul qiluvchidan mustaqil o‘rganuvchi, ma’lumotlarni tahlil qilib, xulosa chiqaruvchiga aylanishini taqozo etmoqda. Bu o‘rinda o‘qituvchi shaxsni rivojlantiruvchi, yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Ayni shu jihatdan, ta’lim muassasalarida zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati benihoya kattadir. Xususan, ular orasida Flipped classroom (teskari sinfxona), vazifaga asoslangan til o‘qitish (task-based language learning) ta’lim metodlarini tadqiqotimizga asos qilib oldik.

Flipped classroom (teskari sinfxona)-rasmiy ta’lim bilan informal ta’limni bog‘lovchi ko‘prik sifatida xizmat qiladi. Yangi axborot bilan tanishuv jarayoni auditoriyadan tashqariga o‘tkaziladi hamda tejalgan vaqtda talabalarning bilimi mustahkamlanadi. Flipped classroom auditoriyadagi axborot yetkazish jarayonini uy sharoitiga, ya’ni informal ta’lim muhitiga o‘tkazadi. Auditoriyada esa kommunikativ til o‘qitishga asoslangan nutqiy vaziyatlarni yaratishga imkon beradi.

